

## Didactic Possibilities for the Development of Multidisciplinary Competencies of Students

**Teshaboyev Azizjon Mahammadaliyevich**  
Fergana Medical Institute of Public Health

**Abstract:** This article presents the results and effectiveness of experimental work aimed at developing future physicians' prophylactic competence through the application of intensive technologies in the teaching of hygiene.

**Key points:** prophylactic competence, hygiene education, intensive technologies, medical students, simulation, clinical thinking, preventive medicine, experimental study, public health, educational effectiveness.

Bugungi tibbiy ta'lim bo'lajak shifokorlarning innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishi asosida ta'limni yuqori darajada tashkil etishni, ta'limdan olinadigan samaradorlikni oldindan belgilab olishni, darsning to'liq o'zlashtirilishi uchun dars usullaridan to'qri foydalanish hamda zaruriy ta'lim vositalari, boshqa kerakli shart- sharoitlarni oldindan tashkil etishni va darsning maqsadiga to'liq erishishni talab etmoqda.

Tibbiy ta'limda mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya fanini o'qitishda shu vaqtgacha mavjud bo'lgan an'anaviy ta'limdan, ya'ni ta'limning markazida o'qituvchi turuvchi ta'lim berish usulidan farqli ravishda, bo'lajak shifokorlarning mustaqil o'rganib, tahlil qilib, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqaruvchi, ya'ni ta'limning asosiy ishtirokchisi talaba hisoblangan jarayonga alohida e'tibor qara tibbiy-fundamental bilimlarni moqda. Tibbiy ta'lim talabalarining qiziqishlarini inobatga olgan holda xorijiy tajribalarga tayanib, har bir darsga doir mavzularni slaydlar, videoroliklar, master-klasslar, musiqa va animatsiyalar asosida olib borish yo'lga qo'yilgan [1].

Zamonaviy tibbiy ta'limni modernizatsiyalash ta'limning shaxsga yo'naltirilgan paradigmasini amalga oshirishni taqozo qiladi. Klinik fikrlash esa hozirgi davrda nafaqat shifokorning o'qimishligi ko'rsatkichi, balki ko'p madaniyatli zamonaviy dunyoda yashashning zaruriy sharti ham hisoblanadi.

Tibbiy ta'lim talabalarining multidisiplinar kompetentsiyasi o'quv jarayoni subyektlarining zamonaviy texnologiyalarni qo'llash qobiliyati, professional o'sish va rivojlanish muammolarini hal qilish uchun tashkil etilgan multidisiplinar faoliyatidan foydalanish hisoblanadi.

Biz bu hodisani keng va tor ma'noda ko'rib chiqamiz.

Tor ma'noda multidisiplinar kompetensiyasi tibbiy ta'lim talabalarining turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish, ularni uyg'unlashtirib amaliyotda qo'llay olish, analitik va tizimli fikrlash, muammoni har tomonlama yondashib hal qilish, mustaqil tadqiqot o'tkazish, ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyatini anglatadi.

Keng ma'noda multidisiplinar kompetentsiyasi bu talabaning turli fanlar (masalan, mikrobiologiya, immunologiya, farmakologiya, klinik tibbiyot va boshqalar) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur anglab, ularning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda qo'llab, tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va kompleks muammolarni hal etishga yo'naltirilgan kasbiy, intellektual va kommunikativ qobiliyatlar majmuasidir, shuningdek, fanlar o'rtasidagi

integral aloqalarni bilish, o'z-o'zini tarbiyalash, kasbiy o'sish va shaxsiy rivojlanish, raqobatbardoshlik darajasini oshirish uchun foydalanish qobiliyatini anglatadi [2].

Talaba uchun multidisiplinar kompetensiya - bu o'qi tibbiy-fundamental bilimlarni ayotgan fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunib, har bir fanning asosiy tushunchalarini kompleks tahlil qila olish, amaliy faoliyatda ularni integratsiyalashgan holda qo'llash, klinik holatlarda muammoni har tomonlama ko'ra bilish, fanlararo fikrlash, izchil muloqot yuritish, shuningdek, ilmiy-nazariy va kasbiy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda uyg'unlashtira olish qobiliyatidir.

O'qituvchi uchun bu nazariy ma'lumotni kasbiy tajribaga aylantirish, talabalarda raqobatbardosh ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalashga in tibbiy-fundamental bilimlarni ish imkonini beradigan usuldir.

A.Jo'rayev multidisiplinar faoliyatida o'qituvchining roli juda muhim deb hisoblaydi. Uning fikricha, o'qituvchi talabaning sherigiga, maslahatchisiga aylanadi va har bir talaba bilan individual ishlaydi. O'qituvchi nafaqat talabalarga qiziqarli loyihalarni yaratishda yordam berishga intiladi, balki ularning ijodiy salohiyatini ochib berishga, tibbiy ta'lim talabalarining multidisiplinar savodxonligi darajasini maqsadli ravishda oshirishga harakat qiladi [3].

Tibbiy ta'limda tabaqalashtirish va individuallashtirish tamoyillari yuqori darajada amalga oshirilishi va tegishli ravishda o'qitishning zamonaviy shakllarini to'g'ri tanlash kerakligi hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim usullari va texnologiyalaridan yetarlicha foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu muammolar tibbiy ta'limda 2-3 kursda mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya fanini o'qitish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi va ularni yangi nazariy-metodologik nuqtai nazardan, ular asosida aniqlangan qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda chuqur o'rganish hayotiy zarurat ekanini ta'kidlaydi. Bunday qarama-qarshiliklar quyidagilardan iborat:

- har bir ta'lim oluvchining individualligini imkoni boricha to'liq namoyon bo'lishini va rivojlanishini ta'minlash zarurati bilan o'qitishning mavjud avtoritarligi, ta'lim tizimida tegishli variativlik yo'qligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;
- jamiyatning tashabbuskor, ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga ehtiyoji bilan tibbiy ta'limda birinchi kursda ta'lim jarayonining ko'p qismida reproduktiv xususiyatga egaligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;
- ta'lim jarayonining tizimli xususiyatga egaligi bilan klinik fanlarni o'qitishning tibbiy ta'lim muassasasiga xos bo'lgan aspektlilik tashkil e tibbiy-fundamental bilimlarni ishi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar.

Qayd etilgan qarama-qarshiliklar ilmiy izlaniish yo'nalishini ko'rsatadi va mazkur tadqiqot muammosi, ya'ni 2-kurs talabalariga mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya fanini, xususan, uning tibbiy-fundamental jihatini o'rgatishga imkoni boricha ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni yaratadigan hamda bo'lajak bo'lajak shifokorning rivojlanishiga, uning kasb egasi sifatida shakllanishiga yordam beradigan yaxlit ta'lim muhitini qay tarzda multidisiplinar mumkinligini ifodalash imkonini beradi [4].

Multidisiplinar usuli (yoki multidisiplinar yondashuv) – bu ta'lim jarayonida bir nechta fan sohalarini birgalikda o'rganish, muayyan mavzuni turli fanlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish, bilim va ko'nikmalarni o'zaro bog'langan holda shakllantirish metodidir.

Harden R.M. multidisiplinar usulini “ma'lum bir ketma-ketlikda ushbu usulni amalda qo'llash imkonini beradigan klinik alar to'plami” sifatida tavsiflaydi [5].

Multidisiplinar yondashuv amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim modeliga mos keladi va Tibbiy ta'lim talabalarining umumiy madaniy va kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Klinik fanlarni o'rgatishda multidisiplinar faoliyatidan foydalanishning afzalliklari:

- bilimlarni faol harakat orqali egallash: ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi emas, talaba turadi;

- tibbiy ta'lim talabalarining individual ishini jamoaviy ish bilan uyg'unlashtirish va buning natijasida mas'uliyatni taqsimlash, ishning bir qismi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati;
- maqsadli faoliyat davomida tibbiy-fundamental bilimlarni muloqot qilish samaradorligini oshirish;
- haqiqiy materiallar bilan ishlash;
- ongni rivojlantirish: ushbu faoliyatning natijasi qanday bo'lishi kerakligini qanchalik chuqur anglasangiz, uni amalga oshirish uchun motivatsiya shunchalik yuqori bo'ladi;
- klinik fanlarni o'rganish motivatsiyasini oshirish;
- notiqlik ko'nikmalarini rivojlantirish: multidisiplinar ish mahsulotining tibbiy-fundamental bilimlarni taqdimoti odatda ommaviy himoya shaklida bo'ladi - talaba/jamoa nutqi [6].

Shunday qilib, tibbiy ta'lim muassasasida klinik fanlarni o'qitishning bosh maqsadi klinik fanlarni muloqot vositasi, o'qitish, rivojlantirish va o'z-o'zini o'stirish vositasi sifatida egallashdan, shuningdek, mutaxassis turli faoliyat sohalarida o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishiga imkon beradigan kasbiy bilimlar va malakalarni o'zlashtirishdan iborat.

#### **REFERENCES:**

1. Sidorov, V.P. Innovative technologies and teaching of hygienic discipline. Diss...cand.med.nauk. -Moscow, 2019. -p.110.
2. Harden, RM, & Laidlaw, JM Essential Skills for a Medical Teacher. - Amsterdam: Elsevier, 2021. -P.59
3. Komilov N. Examination of key factors in enhancing students' critical competence through the teaching of the history of medicine // / tanalysis of world scientific views international scientific journal. No. 3, 2025. - p. 37-42.
4. Komilov N. The relevance of medical history and its impact on medical education // international scientific conference "scientific advances and innovative approaches. No. 3, 2025. -p.5-10.
5. Komilov N. Contemporary approaches to teaching the history of medicine in higher medical education institutions and their evaluation // modern scientific research international scientific journal. No. 1, 2025. - p. 41-45.
6. Komilov N. The significance of medical history in enhancing the specialized competence of students // International conference education, research and innovation. No. 2, 2024. - p. 84-88.
7. Komilov N. Didactic opportunities of teaching history of medicine to foreign students studying in higher medical educational institutions / Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke. No. 2, 2024. -R.19-22.